

SHAHARLARNING HUDUDIY TUZILMALARI ARXITEKTURASI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Yusupov Ziyodulla Jahongirovich

ASL ARX LOYIHA MCHJ Direktori

Annotatsiya:

Bugungi kunda shaharsozlik sohasiga oid asosiy masalalar va muhim muammolarni hal etish nihoyatda dolzarb vazifa ekanligini inobatga olinmoqda.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, muammo va imkoniyatlar, mahalliy jamoatchilik, investitsiyalar va tashqi savdo.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan yangi tartib asosida Qashqadaryo viloyatining tuman va shaharlaridagi mavjud muammo va imkoniyatlar chuqr o'r ganilgan holda, hududlar kesimida muhim loyihalar shakllantirilganligi va mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilindi.

Qashqadaryo viloyatida 2022 — 2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot hajmini 1,5 baravar, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravar, xizmatlar hajmini 2,9 baravar hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirishni nazarda tutuvchi shahar va tumanlar kesimidagi maqsadli ko'rsatkichlar parametrlari tasdiqlangi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Qashqadaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda, 2022-yil uchun tasdiqlangan maqsadli ko'rsatkichlar parametrlariga erishish uchun aniq manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirildi.

Har yili 1-noyabrga qadar kelgusi yillar maqsadli parametrlarini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni va ularni amalga oshirish "yo'l xaritasi"ni tasdiqlandi. Hududlarda aholi bilan o'tkazilgan uchrashuvlar davomida bildirilgan takliflar va aholini uzoq yillardan buyon qiyab kelayotgan mavjud muammolarni



tezkor bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy tadbirlarni o‘z ichiga olgan “yo‘l xaritasi tuzildi.

Qashqadaryo viloyati hokimligi, vazirlik, idora, xo‘jalik birlashmalari va tijorat banklari rahbarlariga “yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli ijrosini ta‘minlash yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklandi.

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 95,0 ni tashkil etdi. Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda; binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 63,2 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022-yilga nisbatan 73,3 % ni tashkil etgan; fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 16,0 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilga nisbatan 125,3 foizga oshgan; ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,8 foiz ulushni tashkil etib, 73,2 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon va «O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlar qabul qilindi[8]. Xususan, qabul qilingan Farmonda, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining shaharsozlik sohasida yagona davlat va ilmiy-texnik siyosatni olib borish jarayonidagi rolini oshirishga qaratilgan, uning faoliyatidagi asosiy vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab beradi. Jumladan: - shaharsozlik, shaharsozlik faoliyatiga doir me’yoriy-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirish va yangilab borish; - loyihalash ishlari va qurilish faoliyatini yaxshilash, qurilishda ishlab chiqarish jarayoniga ilg‘or texnologiyalar jalb qilinishini taminlash; - arxitektura – loyihalash, qurilish sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashni ta‘minlash[9]. O‘zbekistonda qishloq joylarni barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan, ushbu masalani ilmiy jihatdan asoslash, uni amalga oshirishni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy – tadqiqot doirasini kengaytirish va amaliy takliflar ishlab chiqish lozim. Olimlari tomonidan bayon etilgan qishloq joylarini barqaror rivojlanish va uning asosiy tamoyilda turlicha yondoshuvlar mavjud, yagona bir tushuncha va kelishuv yo‘qligini ko‘rsatmoqda. Barqaror rivojlanish konsepsiyasidagi yangi qarashlar turli nazariya va ilmiy maktablar yo‘nalishlarni o‘zida namoyon etgan holda, dunyoda bo‘layotgan murakkab jarayonlarni chuqr tahlil qilib, insoniyat sivilizatsiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan turli omillarga baho berishdan iboratdir.



O‘zbekistonda qishloq joylarni barqaror rivojlantirishda ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi» dasturi katta turtki bo‘ldi. Bu dasturda belgilangan chora-tadbirlar juda keng ko‘lamli va asosiy e’tibor qishloq infratuzilmasi, qishloq tumanlarida elektr energiyasi ta’mnoti, kommunal-maishiy xizmat, suv va gaz, ta’mnoti tizimlarini rivojlantirishga qaratilgandir.

Qishloq xo‘jaligini tarqqiy ettirishi shu jumladan, fermerlarni tayyorlash va malakasini oshirish, qishloqda tadbirkorlikni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga alohida e’tibor bergen holda rivojlantirish, shuningdek, sog‘liqi saqlash va ta’lim masalalariga ham muhim o‘rin ajratilgan. Mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, oziq-ovqat sanoatida yuqori texnologiyalardan keng foydalanishga katta ahamiyat berildi va shu bilan birga, olimlar va mutaxassislar oldida qishloq joylarni barqaror rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish va uni o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil etish masalalari ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Asosiy maqsad — qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, qishloqda yashayotgan xalqimizning turmush darajasini ko‘tarish va ular uchun munosib sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Qishloq hayotini rivojlantirish uchun sanoatni qishloq hududiga olib kelish kerak, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan zamonaviy korxonalarini barpo etish, qishloqda, avvalambor yoshlar o‘rtasida bandlik o‘sishini ta’minalash, qishloq aholisining daromadlari va turmush sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning keng kompleks amalga oshirish maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Xulosa o‘rnida, Shu jumladan, qishloq qiyofasini sifat darajasida yaxshilash, rivojlanish va arxitektura — reja asosida qurilish bosh sxemalariga asoslanib qishloq aholi punktlari qurish, qishloqdagi turar-joy va ijtimoiy soha ob’ektlari namunaviy loyihalar bo‘yicha barpo etilishini nazarda tutuvchi qishloq aholi punktlarining arxitekturaviy rejalshtirilishini tashkil etish va qurilishini loyihalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish olib borilmoqda.

Adabiyotlar

1. Қурбонов П.Р., Усманова Р., Хушмуродов Ф.М. Қашқадарё вилояти ландшафтлардан фойдаланишни оптималлашириш // Life Sciences and Agriculture. Электронное научно-практическое журнал. ISSN 2181-0761, 2020. 160-165 с. (Yirik nashriyotlar va ma’lumotlar bazasi, Scientific Journal Impact Factor №23).



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th Oct., 2023

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

2. Usmanova R., Xushmurodov F.M. Qashqadaryo viloyati optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari // O‘zbekiston Zamini. №2, 2021. 46-51 б. (11.00.00; Milliy nashrlar).
3. Suyunov A.S., Usmonova R., Xushmurodov F.M. Kasbi tumani landshaftlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston Zamini. №3, 2021. 11-16 б. (11.00.00; Milliy nashrlar).
4. Abdullayev S., Mukumova H., Xushmurodov F. landshaftlarni o‘rganishning nazariy va metodik asoslari // Geografiya: Tabiat va jamiyat. ISSN 2181-0834, №1, 2021. 9-18 б. (11.00.00; Milliy nashrlar).



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings